

“ALISHER NAVOIY NOMIDAGI KINO SAROYINING ME’MORIY YECHIMI VA INTERYER BEZAKLARI”



Mohinabonu Bahromova

I kurs magistranti

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-04-10>

Annotatsiya: Maqolada, Toshkent modernizmi me’orchiligining rivojlanish bosqichlari o’rganiladi. Alisher Navoiy nomidagi san’at saroyining me’oriy yechimi, saroyning badiiy bezaklari hamda interyerdagi mayolika pannolari badiiy tahlil qilinadi. Bu jarayon, Toshkentning madaniy rivojlanishiga katta hissa qo’shmoqda.

Kalit so’zlar: Toshkent modernizmi, Alisher Navoiy nomidagi san’at saroyi, badiiy tahlil, Sergo Sutyagin, rus modernizmi, kinosaroy, neoklassik bezaklar.

Аннотация: Статья посвящена изучению развития архитектуры модернизма в Ташкенте. Автор анализирует архитектурное решение Дворца искусств имени Алишера Навои, его художественное оформление, а также художественный анализ майоликовых панно в интерьере. Этот процесс вносит значительный вклад в культурное развитие Ташкента.

Ключевые слова: Ташкентский модернизм, Дворец искусств имени Алишера Навои, художественный анализ, Серго Сутягин, русский модернизм, кино-дворец, неоклассические украшения.

Abstract: The article explores the development of Tashkent modernist architecture. The author analyzes the architectural design of the Alisher Navoi Palace of Arts, its artistic decorations, and the artistic interpretation of the majolica panels in the interior. This process makes a significant contribution to the cultural development of Tashkent.

Keywords: Tashkent modernism, Alisher Navoi Palace of Arts, artistic analysis, Sergo Sutyagin, Russian modernism, cinema palace, neoclassical decorations.

So’nggi yillarda me’orchilik sohasida XX asr me’orligida erishilgan yutuqlar, ulardagi mumtoz uslubiyat kasb etuvchi shakl yaratish qonuniyatlarini tadqiq etish masalalari aktuallik kasb etmoqda. Bu yo’nalishdagi ilmiy tadqiqotlarda XX asr me’orligidagi neoklassizm, modernism uslubidagi binolarini saqlash, ta’mirlash, va ularni autentik holatida, ya’ni birlamchi ko’rinishida kelgusi avlodga yetkazish asosiy o’ringa ega bo’lmoqda. Shu bilan birga, ushbu tasnifga kiruvchi bino va inshootlardan samarali foydalanib, turizm salohiyatini oshirishda me’oriy yechimlar, interyerlarda qo’llanilgan devoriy sur’at va pannolarni saqlash dolzarblik kasb etmoqda.

O’zbekistonda ham XX asr davomida Toshkent shahrida barpo etilgan me’orchilik inshootlarida qo’llanilgan yo’nalishlarni tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayon uning o’ziga xos bosqichi sifatida e’tiborli bo’lgan Toshkent modernizmini tizimli tadqiq etish ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda. Mustaqillikgacha bo’lgan me’orlik rivojida Alisher Navoiy nomidagi kinoteatr binosi va uning interer bezaklari o’ziga xos ahamiyat kasb etishini e’tiborga olgan holda maqolada uning badiiy-uslubiy yechimlarini san’atshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etish mavzuning dolzarbligini asoslashga xizmat qiladi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo’ljallangan “Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning beshinchi ustuvor yo’nalishi “Ma’naviy taraqqiyotni

ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish"da alohida qayd etilgan bo'lib, mazkur ustuvor yo'nalishining 75 va 76-bandlari "Tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish hamda madaniyat va san'at sohalarini yanada rivojlantirish" bo'yicha qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Alisher Navoiy san'at saroyining barpo etilishi tarixi haqida ma'lumotlar olish mumkin bo'lgan manba sifatida "Toshkent" entsiklopediyasi ni keltirib o'tish mumkin. Mazkur ensiklopediyada keltirilishicha: "Alisher Navoiy nomidagi San'at saroyi 1964 yil qurilgan (arxitektorlar V.Berezin, S.Sutyagin, Y.Xaldayev, D.Shuvayev). Keng formatli kinofilmlar namoyish qilish, ijtimoiy-siyosiy yig'inlar o'tkazish, konsertlar berish uchun mo'ljallangan. Ikki zali- katta (2200 o'rinli) va kichik (1976; 590 o'rinli) bor. Katta zali universal akustik rejimni ta'minlaydigan apparatlar bilan jihozlangan. Interyer milliy an'analar ruhida bezatilgan; keramik panno ("Nasriddin afandining sarguzashtlari"), freska bezaklari (rassom A.Gan), dekorativ keramika (rassom A.Kedrin), "Melodiya" haykalli kompozitsiyasi (haykaltarosh Y.Kiselyev), dekorativ metal qandillar va devoriy qandil (bra)lar (arxitektor S.Sutyagin) yog'och va g'isht bezaklarga uyg'unlashib ketgan. 1978 yil interyer to'la rekonstruksiya qilingan (arx. S.Sutyagin, inj.A.Braslavskiy). Me'morlar (ushbu bino va sobiq O'zbekiston KP MK ma'muriy binosi uchun) Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti bilan mukofotlangan (1964)".

"Всеобщая история архитектуры" kitobining 12 jildi 1 kitobida SSSR Arxitekturasi bo'limida qayd etilishicha: "...Bunday binolarning arxitektura va badiiy yechimlari rang-barangligining yorqin misolini Toshkentdagi San'at saroyida ko'rish mumkin. Oldingi misollardan farqli o'laroq, u rivojlangan hajmli-fazoviy tuzilishga ega bo'lib, unda turli texnologiyalar zonalari aniq farqlanadi. Saroyning asosiy elementi - 2200 o'rinli kino va konsert zali silindrsimon hajmda joylashgan bo'lib, ikki qavatli pavilyon bilan vestibul, foye va boshqalar joylashgan o'tish joylari bilan bog'langan. Ushbu loyihada binolarni ikki obyom asosida guruhlash amalga oshirilgan, bu jihat tashrif buyuruvchilarning harakati uchun qulaylik yaratish va strukturaning konstruktiv dizaynini oqilona hal qilishga imkon yaratgan. Shu bilan birga, zalning silindr shakli va gorizontaal cho'zilgan, shaffof, yengil pavilon o'rtasidagi kontrast bino kompozitsiyasiga dinamiklikni beradi va uning unutilmas ko'rinishini yaratadi. San'at saroyining zali kongresslar, uchrashuvlar, kontsertlar, kinoshoularni o'tkazish uchun mo'ljallangan. Uning rejasining oval shakli va amfiteatrda tomoshabinlar uchun o'rindiqlarning joylashishi barcha ishtirokchilar uchun yaxshi ko'rinish sharoitlarini ta'minladi. Yig'ilishlar, konsertlar vaqtida sahnaga orkestr uchun ajratilgan zonani bir qismini ko'tarish-tushirish tekisligidan foydalangan holda, prezidium stoli va ma'ruzachi podiumi o'rnatiladi. Zalning ko'p qirraliligi va katta sig'imi ovozni kuchaytiruvchi va tovushni qayta ishlab chiqaruvchi uskunalardan foydalanishni talab qilgan. Ushbu talablar binoning loyihalash jarayonlarida inobatga olingan".

Ko'rib chiqilgan adabiyotlarda Alisher Navoiy saroyining me'moriy yechimi, shakli, konstruksiyasi unikal ekanligini va ichki qismidagi bezaklari ya'ni freska, mayolika, vitrajlardagi mavzu, uning badiiy jihatdan yutuqlari tahlil qilingan.


Alisher Navoiy kino saroyining me'moriy yechimidagi ta'kidlab o'tilgan yutuqlar mazkur yilda uning 2024 yilda Modernizm davri obyekt maqomi berilishiga omil bo'lganligini qayd etish mumkin. Xususan, bu haqidagi qaror quyidagilarni o'z ichiga oladi – "O'zbekistonda 20 ta binoga modernizm davri ob'ekti maqomi berildi va milliy madaniy meros ob'ektlari ro'yxatiga kiritildi. Bu haqida ushbu tashabbus muallifi bo'lgan Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi xabar berdi. Ma'lum qilinishicha, 22 aprel kuni "Moddiy madaniy meros ob'ektlarining milliy ro'yxatiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" hukumat qarori qabul qilingan. Qaror bilan, birinchi bosqichda quyidagi o'nta ob'ekt milliy ro'yxatga kiritilgan:

Alisher Navoiy nomli kinosaroyi 1958 yilda O'zbekiston SSR ministrilar soveti qarori bilan "Panorama" kinoteatri (2 – rasm) qurish uchun Toshkent markazidan 2 gektar yer ajratilgan edi. Mazkur binoning qurilishi uchun tanlov e'lon qilinadi. Tanlovda Sergo Sutyagin g'olib chiqadi, "...O'ta qiyin musobaqada g'olib chiqqanimizda atigi 25 yoshda edim. Natijada hayratlanarli

me'moriy ob'yekt- San'at saroyi paydo bo'ldi, u hozirda Alisher Navoiy nomidagi Panorama kinoteatri nomi bilan mashhurdir. Biz mualliflar uchun u birinchi muhabbatdek – pok va abadiydir” deb ta'kidlab o'tadi me'mor. Shuningdek, “...1965-yilda Moskvada mashhur amerikalik arxitektor Pol Rudolfning mahorat darsida qatnashdim. Ma'ruzadan so'ng men undan “yig'ma beton konstruksiyalar” texnologiyasi haqida so'ramoqchi edim. Shunda u mendan so'radi: “Siz biror narsa qurishga erisha oldingizmi?” Men unga San'at binosining suratini ko'rsatdim, u shunday dedi: “Sizning yoshingizda biz asosan qarindoshlar va ularning do'stlari uchun villalar quramiz. Siz bunday ob'yekt uchun juda yoshsiz”. U ishonmadi musobaqada g'alaba qozonganimizdan so'ng uni qurganimizga degan xotiralar bilan esga oladi. S.Sutyaginning professional faoliyatining boshidanoq dizaynga yondashuvi va arxitektura rivojlanishining yangi usullarini izlash o'tmishdagi milliy o'ziga xoslik va tajribani o'rganish, ularni taqlid va stilizatsiyasiz ijodiy qayta ko'rib chiqishga asoslangan edi. Me'mor eskiz bosqichida u bir vaqtning o'zida turli xil loyiha variantlarini ishlab chiqadi, bu unga me'moriy va texnik- iqtisodiy nuqtai nazardan optimal variantni tanlash imkonini bergan. Sergo Sutyagin o'zining professional faoliyatini boshlagan yillarda davrning yangi me'moriy uslubi shakllantirilgan edi. Sergo Mixaylovichning bu uslubga qo'shgan hissasi bebahodir. Uning loyihalari har doim noyob, ilg'or va ba'zan o'z davridan oldinroqdadek tuyiladi. “Oltmishinchi” yillar me'morlari ba'zan rejalashtirilgan narsalarini amalga oshirish, loyihani tasdiqlash, mos materiallar va tuzulmalarni topish qanchalik qiyin ekanligini yaxshi bilishgan. Ushbu qiyinchiliklarga qaramasdan, 1964 yili o'zbek me'mori S. Sutyagin tarafidan loyihalangan “Panorama” kinoteatri qurib bitkazildi. Binoning me'moriy go'zalligini e'tirof qilgan o'sha paytdagi O'zbekistonning birinchi rahbari Sharof Rashidov bu kinoteatrga “San'at saroyi” deya nomlansin deb topshiriq beradi. 1978 yili Toshkent ijroqo'mi garori bilan “San'at saroyi” O'zbek SSR tarixiy madaniy yodgorliklar ro'yxatiga kiritiladi.

1991 yilning 20 iyunida Toshkent ijroqo'mi qarori bilan san'at saroyiga ulug' shoir Alisher Navoiy nomi berilgan. 1996 yili O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi qaroriga binoan San'at saroy “O'zbekkino” tarkibiga kiritiladi.

“Toshkentdagi san'at saroyi klassik me'morchilikning ramzi bo'lib, doriy ustunining srezlari ko'rinishida qurilgan”, - deydi zamonaviy me'moriy tanqidchi Vladimir Belogolovskiy. 1962-64 yillar qurilgan bino, 1960-yillarning o'rtalarida paydo bo'la boshlagan “Sovet modernizmi” arxitekturasi yorqin obrazli-metaforalarni yaratish tendentsiyasiga mos keladi (3 – rasm).



1-rasm. Kinosaroy arxitekturasida foydalanilgan uslubiy yechimlar


Kinoteatr neoklassik bezaklar va sharqona bezaklarning ushbu qoidalaridan, shuningdek, perimetr atrofidagi shaharsozlik qoidalaridan voz kechdi. 1964 yilda V. Berezin, S. Sutyagin, Y. Xaldeyev, D. Shuvayev va O. Legostayevalar loyihasi bo'yicha S. Sutyagin tomonidan qurilgan (4 – rasm). Bino cho'zilgan shaklga ega va kinozalning balandligi 22 metr bo'lgan yopiq hajmga ega; binoning katta qismi oynalardan iborat, shuning uchun vizual vaznsiz ko'rinadigan

funksional bo‘linish orqali binoga ideal shakl va fasad tanlangan. Katta zalning hajmi uning atrofidagi ko‘plab bo‘rtmalar tufayli kuzatuvchiga bir necha marta kattaroq ko‘rinadi

Ko‘p qirrali zalning devorlari tuxum qobig‘ining yarmi shaklidagi prefabrik yarim doira beton panellardan yasalgan bo‘lib, ma’lumki, bu juda bardoshli. Bu binoga qo‘shimcha seysmik qarshilik qo‘shdi va qobiq shakli tufayli bu panellarni juda nozik qilish mumkin bo‘ldi. Material - yengil keramzo - betonda foydalanilgan.


Yarim doira devorlarining umumiy ko‘rinishi Samarqand, Buxoro, Xivadagi o‘rta asrlardagi ko‘plab qadimiy binolardagi yarim doira hujayralar devorlarini yoki minoralarning bezaklarini eslatadi (5 – rasm). Arxitekturaning o‘ziga xosligi va zamonaviyligi antik davrdagi mumtoz o‘zbek me’morchiligi ijodi bilan hamohangdir. Binoning tomi go‘yo “suzuvchi” trosslarga osilgan bo‘lib, ularning uchlari beton qobiqli panellarning burchaklarida joylashgan. Shishabetonli vestibul beton zalning ulug‘vorligini ta’kidlaydi. Binodagi beton hech qanday tarzda ishlanmagan, u o‘zining butun ko‘rkamligi bilan ko‘rinadi. Ammo boshqa tomondan, bino qismlarining yarim doira shaklida bo‘lishi O‘zbekistondagi an’anaviy binolarga xos bo‘lgan yorug‘lik va soyaning qiziqarli o‘yinini keltirib chiqaradi. Bu yerda qurilish va me’morchilik zaruriyati estetik rol o‘ynay boshlaganini ko‘ramiz. Ehtiyoj estetikaga aylanadi.

Hozirgacha bu binoga yaqinlashgan insonlar go‘yoki, devorlardan Bax ohanglari bilan organning past tovushlari yangrayotganini his qilishlari mumkin. Bu orqali ularda juda tantanalilik va ko‘tarinkilik vujudga keladi. Kinoteatrning ovozli dizayni filmlarni namoyish qilish, kontsertlar (va sahna mavjud) va balet spektakllari va hatto sun‘iy konkida uchayotgan figurali uchuvchilar uchun mo‘ljallangan. Ichki makon milliy an’analarni (asarlar, dekorativ kulolchilik va boshqalar) hisobga olgan holda yaratilgan. Xulosa qilib aytish mumkinki, panoramali kinoteatr binosi SSSRda ilg‘or texnologiyalar va inqilobiy arxitekturaga ega bo‘lgan birinchi binolardan biri bo‘lib, bizni haligacha o‘zining ulug‘vorligi bilan quvontiradi va hayratda qoldiradi.



2-rasm. Alisher Navoiy nomidagi kino saroyining loyihasi , 1962 – 1964 yillar

3-rasm. Alisher Navoiy nomidagi kino saroy , 1962 – 1964 yillar



4-asm. Alisher Navoiy nomidagi kino saroyining katta zali

5-rasm. Alisher Navoiy nomidagi kino saroyining fasad qismi

Foydalangan adabiyotlar ro`yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF – 60 – son Farmoni
2. 2023 yil 11 sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF – 158 – son Farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 22 apreldagi 227 – sonli qarori Moddiy Madaniy Merosning ko‘chmas mulk ob‘yektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida.
4. Веймарн Б.В., Зингер Л.С. История искусства народов СССР том IX, вторая книга. Искусство народов СССР 1960-1977 – М.: Изобразительное искусство, 1984 – 408с.
5. Всеобщая история искусств том VI, книга вторая – М.: Искусство, 1966 – 848 стр.
6. Кадырова Т. Архитектура Советского Узбекистана – М.: Стройиздат, 1987- 319 с.: ил.
7. Conte R., Perego S. Soviet Asia: Soviet Modernist Architecture in Central Asia – L.: Fuel Publishing, 2019 – 191 p.
8. Дворец кино имени Алишера Навои (Панорамный кинотеатр). Toshkent Modernism. Mobil ilova.